


## IJTIMOIY TARMOQLARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI



**Muhammadjonova Nozimaxon**

Farg'onan davlat universiteti talabasi

**Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich**

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, elektron kommunikatsiya, global kompaniya, global muammo, internet, telegram, facebook, veb-sayt, kompyuter texnologiyalari, elektron xizmat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklarga ega bo'lish, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy va ijobiy taraflari, ulardan to'g'ri foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar va internetning insonlar uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligini haqida fikr yuritiladi.

Ushbu zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizda alohida o'rinni egalladi. Bu bizning hayotimizning bir qismiga aylandi. Umuman olganda, ijtimoiy media - bu bizning fikrlarimiz, g'oyalarimiz, lahzalarimiz va turli xil ma'lumotlarimizni qisqa vaqt ichida baham ko'rishimiz mumkin bo'lgan veb-saytlar yoki ilovalar guruhidir. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish globallashuvda muhim rol o'yndaydi va u aloqa sohasida ajoyib o'zgarishlarga olib keldi.

Ijtimoiy tarmoqlar, bugungi dunyoda odamlar o'rtasidagi aloqalarni kengaytiruvchi va yangiliklarga oson murojaat qilishni ta'minlovchi muhim vositalardir. Bu tarmoqlar orqali odamlar global kompaniyalar bilan ishlashadi, yangi do'stlar va hamkorlar topadi, dunyo bo'y lab yangiliklarga e'tibor bermoqda. Shuning bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar insonlar orasida tashqi dunyonni tushunish va boshqalar bilan baham ko'rishni oshiradi.

Hozirgi kunda biz ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklarni osonlik bilan olish, o'z fikrlarimizni yozish va ularga murojaat qilish, shuningdek, kasblarimizni ko'rsatish imkomiyatiga ega bo'lamiz. Bular odamlarning o'zaro bog'liqliklarini kuchaytiradi va global jamiyatni o'zlashtiradi. Birinchi tashqi qarashlarda ijtimoiy tarmoqlar odamlarni aloqada olishadi, lekin ular yangi mantiqiy va ma'noli munosabarlarni rivojlantirishda ham muhimdir. Bu tarmoqlar yordamida odamlar global muammolarga qaratilgan jamoatni o'zlashtirishda, xalqaro miqyosda o'z manzilini topish mumkin. Lekin bularni hozirgi muhitda o'zgarishi va o'zgartirishi kerak.

Shu bilan birga internet keng imkonoyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'y lab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va

audio mahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo ) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.

Shuningdek, bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etib bo'lmasligini namoyin etyapti. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir –biriga uzatish bilan bog'liq. Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar voqeahodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot al mashish yoki biror voqeа –hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin.

Har kuni ertalab o'rnimizdan turganimizda ko'p hollarda albatta telefonimizni qo'limizga olamiz va telegram, instagram yoki facebook ga kiramiz. Bularidan foydalanishning ko'pgina afzalliklari bor. Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'pgina kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, yangi do'stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo'lishimiz, yangi narsalar o'rganishimiz, do'starimiz bilan suxbatlashishimiz mumkin. Hattoki hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o'z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o'z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o'zlarini uchun xaridorlar avditoriyasini yig'ish va yangi maxsulotlarini xaridorlarga e'lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun afzalliklari.

Ammo bilamizki har bir yaxshi narsaning yomon tomoni bo'lganidek ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham o'ziga yarasha yomon tomonlari bor. Ko'pincha biz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni me'yordan oshirib yuboramiz va ko'p vaqimizni yo'qotib qo'yamiz. Misol uchun Tik tok ijtimoiy tarmog'ini olaylik. Ko'p hollarda Tik tok ga bemaqsad kiramiz va juda ko'p vaqtimizni bu ijtimoiy tarmoqda shunchaki be'mani videolarni tomosha qilish bilan o'tkazamiz. Vaholanki, bizda boshqa muhim vazifalar yetarlicha bo'ladi va biz bu vazifalarni yaxshi bajara olmaymiz yoki umuman bajarmaymiz. Bu albatta juda yomon.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagи o'mni katta va o'zgaruvchan. Ulardan foydalangan holda biz yangi imkoniyatlarni paydo qila olishimiz mumkin. Shu bilan birga ko'p vaqtimizni qo'ldan boy berishimiz mumkin. Shunday ekan biz internetdan unumli va samarali foydalanishimiz, behuda narsalarni ko'rishdan saqlanishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
2. Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o‘rnii M To’rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
3. o‘quv jarayoniga media ta’limning integratsiyasi i Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
4. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
5. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
6. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo ‘llanilishi. In international scientific and practical conference"
7. The time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113). Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang‘ich Sinflarda Ta’lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
8. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.
9. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, (4-1 (83)), 211-214.
10. Media ta’limning o ‘quv jarayoniga tatbig ‘i I Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
11. The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev - 2022
12. Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
13. Turli sohalarda axborot texnologiyalarining tutgan roli S Madinabonu, A Ilxomjon - Научный Фокус, 2023
14. Zamonaviy texnologiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati A Ilhomjon, A Gulira’no - Научный Фокус, 2023